



UDK:101.1

*Husan SUVONQULOV,*  
Dotsent, Guliston davlat universiteti  
G-mail: [xusansuvankulov@gmail.com](mailto:xusansuvankulov@gmail.com)

*DSc A.Asatullayev taqrizi asosida*

#### ISSUES OF ENLIGHTENMENT AND REFORM IN THE ACTIVITIES OF ABDURAHMON TASHKANDI

Annotation

The article analyzes the socio-cultural environment that developed in Turkestan in the late 19th and early 20th centuries, the Jadid movement, and the educational and reformist ideas of the Al-Isloh magazine. It also highlights the formation of Abdurakhmon Tashkenti's worldview and the role of the Jadid press in the process of national awakening.

**Key words:** Turkestan, Jadidism, Enlightenment, Abdurakhmon Toshkandi, "Al-Isloh" magazine, national revival, reformism, Jadid press.

#### ВОПРОСЫ ПРОСВЕЩЕНИЯ И РЕФОРМ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ АБДУРАХМОНА ТАШКАНДИ

Аннотация

В статье анализируется социокультурная среда, сложившаяся в Туркестане в конце XIX и начале XX веков, движение «Джадид», а также образовательные и реформистские идеи журнала «Аль-Ислох». Также освещается формирование мировоззрения Абдурахмона Ташкенти и роль прессы «Джадид» в процессе национального пробуждения.

**Ключевые слова:** Туркестан, джадидизм, Просвещение, Абдурахмон Ташканди, журнал «Аль-Исло», национальное возрождение, реформизм, джадидская пресса.

#### ABDURAHMON TOSHKANDIY FAOLIYATIDA MA'RIFATPARVARLIK VA ISLOHOTCHILIK MASALALARI

Аннотация

Maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda shakllangan ijtimoiy-madaniy muhit, jadidchilik harakati va “Al-Isloh” jurnalining ma’rifiy-islohotchilik g’oyalari tahlil qilinadi. Shuningdek, Abdurakhmon Toshkandiy dunyoqarashining shakllanishi hamda jadid matbuotining milliy uyg’onish jarayonidagi o’rni yoritiladi.

**Kalit so’zlar:** Turkiston, jadidchilik, ma’rifatparvarlik, Abdurakhmon Toshkandiy, “Al-Isloh” jurnali, milliy uyg’onish, islohotchilik, jadid matbuoti.

**Kirish.** Ma’rifatchilik jamiyat taraqqiyotining istiqbollariga doir bir qator falsafiy qarashlar va dunyoqarashlarning uchrashish maydoniga aylandi. Bu ijtimoiy rivojlanishning muhim masalalari va eng avvalo mustamlakachilikning ildizlarini barbod etish g’oyasini konseptual jihatdan anglashda ko’rindi.

XIX asr yarmida yashab ijod qilgan Ahmad Donish (1827-1897) shu kabi ilg’or g’oyalari bilan nom chiqargan alloma, ma’rifatparvarlardan biri bo’lgan. Ahmad Donish Buxoroda dunyoga kelib, shu hududdagi maktab va madrasalarda ta’lim olgan. Ahmad Donish 1857, 1869 va 1874-yillarda Buxoro amirligi elchilari tarkibida Peterburgga boradi, G’arb madaniy hayoti, ilm-fani muvaffaqiyatlari bilan yaqindan tanishadi, bu sayohat ma’rifatparvar dunyoqarashida ulkan burilish qiladi. Natijada olim Buxoroda bor tartiblarni isloh etish loyihasini ilgari suradi. Ahmad Donishning ijtimoiy-siyosiy fikrlari “Risolai muhtasare az tarixi saltanati xonadoni mang’itiya”, “Navodir ul- vaqoye” kabi asarlarida o’z aksini topgan. Bu asarlar orqali Ahmad Donish ijtimoiy rivojlanishga to’siq bo’lib turgan feodal ijtimoiy-siyosiy tuzum, tartib va qarashlarni tanqid qiladi. Tadqiqotning maqsadi jadid matbuoti orqali ilgari surilgan ma’rifiy va islohotchilik g’oyalarning mohiyatini ochib berish hamda ularning milliy uyg’onish jarayonidagi ahamiyatini ilmiy asoslashdan iborat.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Turkistonda jadidchilik harakati, ma’rifatparvarlik g’oyalari hamda milliy uyg’onish jarayonlari masalasi ilmiy adabiyotlarda keng va ko’p qirrali tarzda yoritilgan. Ushbu yo’nalishdagi tadqiqotlarni

shartli ravishda tarixiy-falsafiy, adabiyotshunoslik va matbuotshunoslik yo’nalishlariga ajratish mumkin.

Avvalo, jadidchilik harakatining ijtimoiy-falsafiy asoslari I.M. Mo’minov tadqiqotlarida chuqur tahlil qilingan bo’lib, unda XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy tafakkurining rivojlanish bosqichlari tarixiy kontekstda yoritiladi [1]. Muallif jadidchilikni jamiyatni ma’naviy jihatdan yangilashga qaratilgan muhim ijtimoiy-falsafiy hodisa sifatida baholaydi. Shuningdek, zamonaviy tadqiqotchilar — A. Ahmedov, D. Alimova, H. Ziyoyev, N. Karimov va boshqalarning ilmiy ishlarida jadidchilik harakatining mohiyati yangicha yondashuv asosida talqin qilinib, uning milliy taraqqiyotdagi o’rni keng ochib berilgan [17].

Adabiyotshunoslik yo’nalishidagi tadqiqotlarda jadidchilik davri adabiyoti, uning g’oyaviy yo’nalishlari va badiiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Jumladan, O. Karimovning ishlari milliy uyg’onish davri o’zbek adabiyotining mazmun-mohiyatini tizimli tarzda yoritishga xizmat qiladi [2]. Ushbu tadqiqotlarda jadid adabiyotining asosiy vazifasi jamiyatni ma’rifatga chorlash, milliy ongni shakllantirish va ijtimoiy islohot g’oyalarni targ’ib qilishdan iborat ekanligi ta’kidlanadi. Shu bilan birga, Ibrohim Davron kabi ijodkorlarning qarashlari orqali jadid ma’naviy muhiti va adabiy jarayonlar haqida muhim ma’lumotlar olinadi [3].

Jadid matbuoti va uning jamiyat hayotidagi o’rni masalasi ham alohida ilmiy qiziqish uyg’otgan. “Turkiston viloyatining gazetasi”, “Sadoyi Farg’ona”, “Vaqt” kabi nashrlar faoliyati bo’yicha olib borilgan tadqiqotlar ushbu matbuot organlarining ma’rifatparvarlik g’oyalarni yoyishdagi rolini

ochib beradi [4]. Shuningdek, "O'zbekiston jurnalistikasi tarixi (1870–2000)" kabi tadqiqotlarda Turkiston matbuotining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va jamiyatdagi o'rni ilmiy asosda tahlil qilingan [18]. Cho'pning publitsistik qarashlari ham jadid matbuotining mohiyatini tushinishda muhim manba sifatida xizmat qiladi.

So'nggi yillarda Abdurahmon Sayyoh Toshkandiy faoliyati va uning muharrirligida nashr etilgan "Al-Isloh" jurnaliga bo'lgan ilmiy qiziqish ortib bormoqda. Jumladan, A.A. Asatulloev tadqiqotlarida mazkur jurnal sahifalarida ilgari surilgan ijtimoiy-axloqiy qarashlar, diniy islohotchilik g'oyalari va ma'rifatparvarlik konsepsiyasi tahlil qilingan [6]. K. Pardayev esa "Al-Isloh" materiallari asosida milliy uyg'onish davri adabiy va publitsistik muammolarini o'rganib, jurnalning ilmiy va madaniy ahamiyatini asoslab beradi [19].

"Al-Isloh" jurnalining o'zi esa birlamchi manba sifatida alohida ilmiy qiymatga ega. 1915–1918 yillarda nashr etilgan jurnal sahifalarida diniy, axloqiy, ijtimoiy va adabiy masalalarga oid maqolalar, bahs-munozaralar va publitsistik materiallar keng o'rin olgan bo'lib, ular o'sha davr Turkiston jamiyatining real holatini aks ettiradi [9]. Jurnal materiallari asosida olib borilgan tadqiqotlar jadidchilik harakatining ichki g'oyaviy qarashlarini, uning diniy va dunyoviy asoslarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Shu bilan birga, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, jadidchilik harakati, uning namoyandalari va matbuoti bo'yicha muayyan ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, Abdurahmon Sayyoh Toshkandiy faoliyati hamda "Al-Isloh" jurnalidagi materiallar asosida kompleks, tizimli tadqiqotlar yetarli darajada olib borilmagan. Ayniqsa, jurnal sahifalarida aks etgan ijtimoiy-axloqiy, diniy va estetik qarashlarni bir butun tizim sifatida o'rganish dolzarb ilmiy vazifa bo'lib qolmoqda.

Demak, mazkur tadqiqot aynan shu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan bo'lib, jadid matbuoti, xususan "Al-Isloh" jurnali materiallari asosida Abdurahmon Sayyoh Toshkandiy qarashlarini kompleks tahlil qilish orqali Turkiston ijtimoiy-falsafiy tafakkurining muhim jihatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotda Turkistonda XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yuzaga kelgan ijtimoiy-madaniy jarayonlar hamda jadidchilik harakati, xususan, Abdurahmon Sayyoh Toshkandiy faoliyati va "Al-Isloh" jurnali materiallarini o'rganishda kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotning metodologik asosini tarixiylik, tizimlilik, obyektivlik va qiyosiylik tamoyillari tashkil etadi.

Avvalo, tarixiylik tamoyili asosida jadidchilik harakati va uning shakllanish jarayonlari muayyan davr – XIX asr oxiri va XX asr boshidagi ijtimoiy-siyosiy sharoit bilan uzviy bog'liq holda tahlil qilindi. Bu yondashuv orqali Turkistondagi mustamlakachilik siyosati, ma'naviy muhit va ijtimoiy muammolar jadidchilik g'oyalarining paydo bo'lishiga qanday ta'sir ko'rsatgani aniqlashtirildi. Shu bilan birga, tizimlilik tamoyili asosida jadidchilik harakati yaxlit ijtimoiy-falsafiy hodisa sifatida ko'rib chiqilib, uning tarkibiy qismlari – ta'lim islohoti, matbuot, ma'naviy-axloqiy qarashlar o'zaro bog'liqlikda o'rganildi.

Tadqiqotda manbashunoslik yondashuvi muhim o'rin tutdi. Birlamchi manbalar sifatida "Al-Isloh" jurnalining 1915–1918 yillardagi sonlari, shu davrga oid gazeta materiallari hamda jadid namoyandalarning asarlari tahlil qilindi. Mazkur manbalar orqali Abdurahmon Sayyoh Toshkandiy tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy-axloqiy, diniy va ma'rifiy qarashlar aniqlashtirildi. Ikkilamchi manbalar sifatida esa zamonaviy ilmiy tadqiqotlar, monografiyalar, dissertatsiyalar va

maqolalardan foydalanilib, mavzuning nazariy-metodologik asoslari mustahkamlandi.

Tahlil jarayonida kontent-tahlil (matn tahlili) usuli qo'llanilib, "Al-Isloh" jurnalida e'lon qilingan maqolalar mazmuni, asosiy g'oyalari va muammolari tizimli ravishda o'rganildi. Ushbu metod yordamida jurnalda ko'tarilgan diniy, axloqiy, ijtimoiy va ma'rifiy masalalar tasniflanib, ularning jamiyat hayotidagi o'rni baholandi. Shuningdek, tarixiy-qiyosiy metod asosida jadid matbuoti boshqa nashrlar bilan taqqoslanib, "Al-Isloh" jurnalining o'ziga xos xususiyatlari aniqlab berildi.

Tadqiqotda mantiqiy tahlil, sintez va umumlashtirish metodlaridan ham foydalanildi. Ushbu metodlar yordamida olingan faktlar tizimlashtirilib, jadidchilik harakati va Abdurahmon Sayyoh Toshkandiy qarashlarining umumiy qonuniyatlari aniqlashtirildi. Natijada, tadqiqotning ilmiy xulosalari shakllantirilib, mavzuning nazariy va amaliy ahamiyati asoslab berildi.

Shu tarzda qo'llanilgan metodologik yondashuvlar tadqiqot mavzusini har tomonlama va chuqur o'rganish, tarixiy manbalar asosida ilmiy xulosalar chiqarish hamda jadidchilik harakati va "Al-Isloh" jurnalining ijtimoiy-falsafiy ahamiyatini ochib berishga xizmat qildi.

**Tahlil va natijalar.** Tadqiqot jarayonida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda shakllangan ijtimoiy-madaniy muhit hamda jadidchilik harakatining asosiy yo'nalishlari tahlil qilindi. Mazkur davrda jamiyatdagi ma'naviy qoloqlik, mustamlakachilik siyosati va ijtimoiy inqiroz ma'rifatparvarlik g'oyalarining kuchayishiga sabab bo'ldi [1]. Jadidlar jamiyatni yangilashning asosiy yo'li sifatida ilm-fan, ta'lim, axloqiy tarbiya va matbuotni rivojlantirishni ilgari surdilar [2]. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, jadidchilik harakati dastlab ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishda shakllangan bo'lsa-da, keyinchalik ijtimoiy-siyosiy mazmun kasb eta boshladi. Yangi usul maktablari, darsliklar, gazeta va jurnallar orqali xalqni uyg'otish, milliy ongni shakllantirish hamda islohotchilik g'oyalarini yoyish asosiy vazifa sifatida belgilandi [9]. Bu jarayonda "Turkiston viloyatining gazetasi", "Sadoyi Farg'ona", "Vaqf" kabi nashrlar muhim manba bo'lib xizmat qildi [3].

"Al-Isloh" jurnalining faoliyati jadid matbuoti tarixida alohida o'rin tutadi. Jurnal 1915–1918-yillarda nashr etilib, diniy, axloqiy, ijtimoiy va ma'rifiy masalalarni yoritishga xizmat qilgan [6]. Unda musulmonlarni Qur'on va sunnatga chaqirish, bid'at va xurofotlardan qaytarish, fiqhiy hamda e'tiqodiy masalalarni tushuntirish asosiy vazifalardan biri sifatida ko'rsatilgan [13]. Shu jihatdan "Al-Isloh" diniy-ma'rifiy jurnal bo'lishi bilan birga, jamiyatdagi islohotchilik fikrlarini targ'ib qilgan muhim matbuot organi sifatida namoyon bo'ladi [10]. Abdurahmon Sayyoh Toshkandiy faoliyatining tahlili uning qarashlarida axloqiy poklanish, ma'rifat, diniy bilimlarni to'g'ri anglash va ijtimoiy mas'uliyat g'oyalari yetakchi o'rin tutganini ko'rsatadi [5]. U muharrir sifatida "Al-Isloh" jurnalini xalqni ma'rifatga chaqiruvchi, jamiyatdagi nojoiz odatlarni tanqid qiluvchi va islohot g'oyalarini yoyuvchi vosita sifatida ko'rgan [12]. Jurnalda chop etilgan "Islohi qavm", "Al-Isloh", "Urvatul vusqo", "Muzokarai isloh" kabi maqolalarda Turkiston musulmonlari hayotida isloh zarurati ochib berilgan [14].

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, "Al-Isloh" jurnalida ilgari surilgan qarashlar faqat diniy masalalar bilan cheklanib qolmagan. Unda til va imlo, axloq, ta'lim, madaniyat, ijtimoiy birlik, matbuot va jamiyat taraqqiyoti kabi muhim masalalar ham yoritilgan [20]. Ayniqsa, jurnal sahifalarida bid'at, xurofot, isrofgarchilik, jaholat va ijtimoiy loqaydlik tanqid qilinib, ularning o'rniga ma'rifat, tartib, axloqiy poklik va diniy ongni yangilash g'oyalari ilgari surilgan [15].

Umuman olganda, tahlillar “Al-Isloh” jurnalining Turkiston jadid matbuoti tarixida muhim o‘rin egallaganini ko‘rsatadi. Jurnal milliy uyg‘onish jarayonida xalqni ma‘rifatga chorlash, diniy-axloqiy qarashlarni isloh qilish va jamiyatda ijtimoiy fikrni shakllantirishga xizmat qilgan [19]. Shu sababli Abdurahmon Sayyoh Toshkandiy faoliyati va “Al-Isloh” jurnali materiallarini o‘rganish Turkiston ijtimoiy-falsafiy tafakkuri hamda jadidchilik harakati tarixini chuqurroq anglashda muhim ilmiy ahamiyatga ega.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda yuzaga kelgan ijtimoiy-madaniy muhit jadidchilik harakati va ma‘rifatparvarlik g‘oyalari shakllanishida muhim omil bo‘ldi. Mustamlakachilik siyosati, ma‘naviy qoloqlik, jaholat va ijtimoiy muammolar millat ziyolilarini jamiyatni isloh qilish yo‘llarini izlashga undadi. Bu jarayonda “Al-Isloh” jurnali diniy, axloqiy, ma‘rifiy va ijtimoiy masalalarni yoritib, xalq

ongini uyg‘otish, bid‘at va xurofotlarga qarshi kurashish hamda milliy taraqqiyot g‘oyalarini targ‘ib qilishda muhim o‘rin tutdi.

Abdurahmon Sayyoh Toshkandiy faoliyati va qarashlari jadidchilik mafkurasining ijtimoiy-axloqiy yo‘nalishini ochib berishda alohida ahamiyatga ega. Uning “Al-Isloh” jurnalidagi faoliyati orqali ma‘rifat, axloqiy poklanish, diniy bilimlarni to‘g‘ri anglash va jamiyatni yangilash g‘oyalari ilgari surildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, mazkur jurnal Turkiston jadid matbuoti tarixida faqat diniy-ma‘rifiy nashr emas, balki ijtimoiy fikrni shakllantiruvchi muhim intellektual maydon sifatida ham namoyon bo‘lgan.

Shu bois Abdurahmon Sayyoh Toshkandiy merosini yanada chuqur o‘rganish, “Al-Isloh” jurnali materiallarini ilmiy muomalaga keng jalb etish va jadid matbuoti tarixini kompleks tadqiq qilish muhim vazifalardan biridir. Shuningdek, jadidlarning ma‘rifat, axloq va milliy uyg‘onishga oid g‘oyalari bugungi ta‘lim-tarbiya jarayonida samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir.

#### ADABIYOTLAR

1. Мўминов И.М. Ўзбекистонда XIX аср охирида XX аср бoshларида ижтимоий-фалсафий тафаккурнинг ривожланиш тарихидан // Танланган асарлар. Биринчи том. – Тошкент, 1969.
2. Karimov O. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti: savol-javoblar. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Namangan: “Namangan” nashriyoti, 2017. – B. 25.
3. Туркистон вилоятининг газети. – № 56. – Б. 3.
4. Вақт. – 1913. – № 1324.
5. Asatulloev A.A. Abdurahmon Sayyoh Toshkandiyning “Al-Isloh” jurnalida ilgari surgan axloqiy fikrlari (“Me‘yor ul-axloq” asari tasnifida) // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. – 2021. – № 1(2). – B. 141.
6. Ал-Ислох. – 1915. – № 2.
7. Ал-Ислох. – 1915. – № 1.
8. Имзосиз. Янги асар // Садои Фарғона. – 1915. – 12 февраль.
9. Ўзбекистон журналистикаси тарихи (1870–2000): қисқа маърузалар матни / Тузувчи: Н. Абдуазизова. – Тошкент: Мирзо Улуғбек номи Тошкент давлат университети, 1999. – Б. 26.
10. Пардаев К. Миллий уйғониш даври манбаларида адабий ва публицистик муаммолар талқини (“Ал-Ислох” журнали материаллари асосида): филол. фан. номз. ... дис. – Тошкент, 2008. – Б. 13.
11. Asatulloev A.A. Abdurahmon Sayyoh Toshkandiyning ijtimoiy-axloqiy konsepsiyasi: falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ... diss. – Toshkent, 2023. – B. 32.
12. Абдурахмон Сайёх. Мажаллаи “Ал-Ислох” муштарийларига // Ал-Ислох. – Тошкент, 1917. – № 21. – Б. 578.
13. Идора. Ислох вазифаси // Ал-Ислох. – Тошкент, 1915. – № 2. – Б. 1.
14. Ислоҳи қавм // Ал-Ислох. – Тошкент, 1915. – № 1. – Б. 8–15.
15. Заиф ва ночорлик // Ал-Ислох. – Тошкент, 1915. – № 3. – Б. 65–67.
16. Ҳолмуҳаммад ибн Тўрақули. Ал-Ислох ҳақида ожизона фикр // Ал-Ислох. – Тошкент, 1916. – № 24. – Б. 606.
17. Олимхон Тўра. Урватул вуско // Ал-Ислох. – Тошкент, 1916. – № 1. – Б. 3.
18. Фазлул Ваҳҳоб қори. Илтимос ва умид // Ал-Ислох. – Тошкент, 1916. – № 7. – Б. 213–216.
19. Абдулҳай Маҳдум. Музокараи ислоҳ // Ал-Ислох. – Тошкент, 1915. – № 4. – Б. 126–128.
20. Идора. Муҳтарам Туркистон мусулмонларимизга // Ал-Ислох. – Тошкент, 1915. – № 2. – Б. 62–64.
21. Имом Лутфуллоҳ Фаҳриддин. Ал-Ислох // Ал-Ислох. – Тошкент, 1915. – № 4. – Б. 108–113.
22. Иброҳим Тоҳирий. Матбуот ва ислоҳ боқияси // Ал-Ислох. – Тошкент, 1915. – № 2. – Б. 170–179.